

QADIMGI XORAZM YODGORLIKLARI - TUPROQQAL'A

Ismailov Tohirjon Xushnudbek o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11095718>

Tuproqqal'a - qadimgi Xorazm "xazinasi" yoki "Yer shahri" - Qadimgi Xorazmning eng qimmat va mahobatli yodgorliklaridan biridir. Tuproqqal'a (milodiy I-VI asrlar) Sulton Uvays tog' tizmasidan bir necha kilometr janubda joylashgan. Ushbu qal'a antik davrda, Afrigidlar sulolasi hokimiyatga kelishidan oldin, Qadimgi Xorazm hukmdorlarining qarorgohi bo'lib xizmat qilgan. Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining boshqa ko'plab yodgorliklari kabi ushbu yodgorlik ham taniqli arxeolog va tarixchi Sergey Pavlovich Tolstov tomonidan topilgan. Bu qidiruv ishlari 1938 yilda sodir bo'lgan. Shaharning maydoni 120 gektarni tashkil etadi va keyinchalik ma'lum bo'lishicha, bir vaqtlar bu yerda mudofaa devori va kvadrat minoralar bilan o'ralgan shahar va hashamatli qal'a-saroy bo'lgan. Yodgorlikning nomi, uning hozirgi holatidan kelib chiqib, katta tuproq tepalik degan ma'noni anglatadi.



1-rasm. Tuproqqal'aning tashqi ko'rinishi (hozirgi holati).

Tuproqqal'a majmuasi - shahar, yuqori saroy va shimoliy majmuadan iborat. Shahar - maydoni 500 × 350 m. to'g'ri burchakli shaklda bo'lib, balandligi 8-9 metrli mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Bundan tashqari, shahar ko'plab yassi burchakli to'rtburchak minoralarga ega bo'lib, yon atroflari keng xandaq bilan o'ralgan. Shahar darvozasi murakkab inshoot shaklida qurilgan bo'lib, ushbu darvozadan butun shahar bo'ylab qal'agacha kengligi 9 metr bo'lgan markaziy ko'cha o'tgan.

Bir vaqtlar muhtasham qal'a qadimiy shaharning o'zagi bo'lib, eramizning II-III asrlarida Xorazm shohlarining qarorgohi bo'lgan. Bu yerda, mudofaa devori orqasida dushman hujumlaridan himoya galereyalari bo'lib, ko'plab ko'chalar va savdo rastalari joylashgan, shuningdek markazda keng old ko'cha mavjud bo'lgan. Qadimgi shahar shunchalik katta ediki, uning hududi 200 ga yaqin xo'jalik va turar-joy binolaridan iborat 10 ta kvartalni o'z ichiga olgan. Har bir kvartalda o'zlarining kichik-markazlari bo'lib, ularda ziyoratgohlar va hunarmandchilik binolari joylashgan. Shaharda 2,5 mingdan ortiq aholi yashagan, ularning yarmi saroy qarorgohida ishlagan.



2-rasm. Tuproqqal'aning ichki ko'rinishi (hozirgi holati).

Saroyning asosiy qismini ibodat va marosim xonalari majmuasi egallagan. Inshootning devorlari naqshlar bilan, unga tegishli beshta zal esa rangbarang sopol barelyeflar bilan bezatilgan. Ushbu bezaklardan oz qismi bizgacha yetib kelgan.

Qal'a uch qavatdan iborat bo'lgan. Uning xonalaridan ko'plab yodgorliklar topilgan: oziq-ovqat qoldiqlari (*suyaklar, urug'lar*), idishlarning bo'laklari va butun qismlari, turli xil idishlar, zargarlik buyumlari, haykallar (*eng mashhur haykallardan biri - Ruhoniy haykali*), rasmlar va hatto qadimgi Xorazm qo'lyozmalari.

Hashamatli saroyning markazida mahobatli devoriy rasmlar va antiqa naqshlar bilan bezatilgan taxt o'rnatilgan xona bor edi. "Qirollar zali"da ellinistik san'atiga oid haykallar, turli portretlar va yuzlari juda realistik tasvirlangan haykallar topilgan.

Tuproqqal'ani qazish ishlari shov-shuvga sabab bo'ldi va III asrda shahar Qadimgi Xorazmning ilg'or poytaxti bo'lganligi, bu zaminda qadimiy madaniyatning gullab-yashnaganligi, ko'chalar va binolar yaxshi loyihalashtirilganligi, Tuproqqal'ani geometriya qirolligi deb atash mumkinligi haqida xulosa qilish imkonini beradigan qiziqarli materiallar olingan.

References:

1. Ismailov, T. (2024). PALACE OF THE KHOREZMSHAKH. *Models and methods in modern science*, 3(3), 5-7.
2. Ismailov, T. (2024). THE FORT THAT SPEAKS FROM THE PAST. *Current approaches and new research in modern sciences*, 3(2), 208-212.
3. Ismailov, T. (2024). PALACE OF THE KHOREZMSHAKH. *Models and methods in modern science*, 3(3), 5-7.
4. Ismailov, T. (2024). KO'HNA VA HAMISHA NAVQIRON SHAHAR. *Молодые ученые*, 2(2), 71-72.